

VALYUTA SIYOSATI.

Axmadaliyeva Nihola

Jumayeva Sabrina

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11112428>

Annotatsiya. Valyuta siyosati muhim iqtisodiy instrument bo'lib, davlatlar va moliyaviy tashkilotlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni shakllantiradi. Valyuta kurslari ustida olib boriladigan siyosatlar moliyaviy istiqbolni, savdo munosabatlarni va mamlakatlararo moliyaviy munosabatla ta'sir qiladi. Xalqaro moliyaviy munosabatlarda moliyaviy siyosatning o'z ahamiyati va xalqaro savdo munosabatlarining jarayonlari valyuta siyosati orqali belgilanadi. Valyuta siyosati davlatlar o'rtasidagi ishonch va xalqaro savdo munosabatlarining barqarorligi uchun muhimdir, ammo uning dastlabki o'rnini qo'lda tutish lozim.

Kalit so'zlar: valyuta siyosati, diskont (foiz stavkasi) siyosati, foiz stavkasi, deviz siyosati, devalvatsiya, revalvatsiya, valyuta cheklashlar.

Valyuta siyosati-davlatning mamlakat ichida va undan tashqarida valyutaga, valyuta kursita, valyuta operatsiyalariga ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari; davlat iqtisodiy siyosatining va tashqi iqtisodiy faoliyatining tarkibiy qismi. Valyuta siyosati - valyuta muammolarini hal etish bo'yicha qarorlar tayyorlash, qabul qilish va tadbiq etishdan iboratdir.

Valyuta siyosati maqsad va amalga oshirish muddatiga ko'ra tarkibiy va joriyga bo'linadi:

Joriy valyuta siyosati- valyuta kursi, valyuta operatsiyasi, valyuta bozorining faoliyati va oltin bozorini qisqa vaqtda tezkorlik bilan boshqarishdir.

Tarkibiy valyuta siyosati- jahon valyuta tizimi tarkibini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli tadbirlar majmuidir. Tarkibiy valyuta siyosati, joriy valyuta tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Valyuta siyosatining quyidagi shakllari mavjud: Diskont siyosati, Deviz siyosati va uning instrumentlari: valyuta intervensiyasi, valyuta zaxiralarini diversifikatsiyasi, valyutaviy cheklashlar, devalvatsiya, revalvatsiya, valyutali svop.

Diskont (foiz stavkasi) siyosati. Markaziy bankning foiz siyosati, odatda milliy valyutaning amaldagi massasiga ta'sir ko'rsatish, ya'ni uni kamaytirish yoki ko'paytirish orqali valyuta kursiga ta'sir etish mexanizmidir.

Foiz stavkasi - ssuda kapitalining yillik daromadini uning mutloq kattaligiga nisbatidan kelib chiqadi. Foiz stavkalari odatda foyda me'yori orqali aniqlanadi, lekin amaliyotda foiz stavkasi darajasi ssuda kapitalariga bo'ladigan talab va



taklifdan kelib chiqadi. Bu talab va taklif bir qancha fundamental iqtisodiy hamda boshqa, ya'ni davriy o'zgarishlar, inflyatsiya darajasi, iqtisodiyotga davlatning aralashuv darajasi, Markaziy bank va davlatning byudjet-soliq siyosati va h.k. omillarga bog'liq.

Deviz siyosati. Markaziy bankning deviz siyosati muomaladagi xorijiy valyuta miqdoriga ta'sir etish orqali valyuta kursiga ta'sir ko'rsatish, shuningdek, chet el valyutasidagi aktivlar barqarorligini ta'minlashga qaratiladi.

Valyuta intervensiyasi. Markaziy bankning deviz siyosatining eng keng tarqalgan shakli, valyuta intervensiyasi hisoblanadi.

Markaziy bankning milliy valyuta kursiga ta'sir etish maqsadida valyuta bozorida chet el valyutalarini sotib olish yoki sotishiga valyuta intervensiyasi deyiladi.

Hozirgi davrda valyuta intervensiyasidan ko'zlangan maqsad - valyuta kursining qisqa vaqt oralig'ida, kutilmaganda yuzaga keladigan keskin tebranishlarga barham berish hisoblanadi. Markaziy banklar valyuta kursini istalgan darajada o'zgartirish imkoniyatiga ega emas, chunki ular valyuta bozorlarida tijorat banklari bilan raqobat qila olmaydilar.

Valyuta intervensiyasi rasmiy oltin-valyuta zaxiralari yoki Markaziy banklarning banklararo "SVOP" bitimlari hisobiga amalga oshiriladi.

Devalvatsiya - milliy valyutaning chet el valyutalariga yoki xalqaro hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrining tushishidir.


Devalvatsiyaning kelib chiqishiga sabab bo'lib, inflyatsiyaning kuchayishi va mamlakat to'lov balansining salbiy qoldiqqa ega bo'lishi hisoblanadi.

Devalvatsiya siyosati mamlakat to'lov balansi yomonlashganda va mamlakatga import oqimi sezilarli darajada ko'payganda amalda qo'llash iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etadi.

Demak, devalvatsiyani qo'llash shart-sharoiti yuzaga kelganda, uni darhol amalga oshirish lozim, aks holda sun'iy ravishda kursning qat'iy ushlab turilishi, butun iqtisodiyotga sezilarli darajada talofat etkazishi mumkin.

Revalvatsiya — milliy valyutaning chet el valyutalariga yoki hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrini oshirishdir. Revalvatsiya qadri kuchli valyutalarga nisbatan qo'llaniladi.

Inflyatsiyaning nihoyatda past darajada bo'lishi, uzoq vaqt davomida mamlakat to'lov balansining aktiv bo'lishi, hamda milliy firma va kompaniyalarning jahon savdo bozorida raqobatbardoshligining ortishi, revalvatsiyani keltirib chiqaradi. Revalvatsiya devalvatsiyaga nisbatan jahon amaliyotida kamroq qo'llaniladi.



Mamlakatlarda valyuta kursi rejimini tanlash, uning shartlariga amal qilish ham valyuta siyosatining bir ko'rinishi hisoblanadi.

Valyuta kursi rejimlarini tasniflash borasida iqtisodchi olimlar tomonidan hanuzgacha yagona to'xtanga kelinmagan. Biroq valyuta kursining xilma xil rejimlari qat'iy belgilangan va suzuvchi rejim oralig'idan joy olishi ta'kidlanadi. Boshqacha aytganda, kurs rejimlari keng ma'noda qat'iy belgilangan, suzuvchi va oraliq rejimlardan tarkib topadi.

Valyuta operatsiyalari: valyuta operatsiyalari ,kapital harakati operatsiyalariga bo'linadi.

Joriy xalqaro operatsiyalari.

tashqi savdo va boshqa joriy faoliyat, shu jumladan xizmatlar (ishlar) bilan bog'liq barcha to'lovlar;

foizlar va boshqa daromadlar, shu jumladan bank depozitlari, kreditlar, lizing va boshqa investitsiyalardan olingan sof daromadlar ko'rinishidagi to'lovlar;

notijorat transferlari (yuz million so'm ekvivalentigacha bo'lgan miqdorda jismoniy shaxslar o'rtasidagi o'tkazmalar).

Kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalar.

investitsiya faoliyati;

kreditlar olish va berish, lizing operatsiyalari;

ko'chmas mulkni sotib olish va sotish;

xorijiy davlatlarning mablag'larini jalb qilish, shuningdek, chet elga mablag'larni o'tkazish;

to'liq intellektual mulkka bo'lgan mutlaq huquqni olish yoki sotish.

Rezidentlarning valyutadagi operatsiyalari.

“Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonunning 19-moddasiga muvofiq, O'zbekiston hududida rezidentlar va norezidentlar tomonidan chet el valyutasini sotib olish va sotish faqat O'zbekiston banklari orqali amalga oshiriladi.

“Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonun rezidentlarga O'zbekiston banklarida chet el valyutasida hisob raqamlarini ochish imkonini beradi.

Chet el valyutasini sotib olish – Yuridik shaxslar uchun

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun quyidagi ma'lumotlar bilan ariza to'ldirishlari kerak:

mijozning nomi;

valyuta turi va miqdori;

sotib olish yoki sotish stavkasi.

Chet el valyutasini sotib olishda qo'shimcha ma'lumotlar ham taqdim etiladi:



chet el valyutasini sotib olish maqsadi;
valyuta operatsiyalarini tasdiqlovchi hujjatlar.

Chet el valyutasini sotib olish – Jismoniy shaxslar uchun.Jismoniy shaxslar bilan valyuta operatsiyalari cheklovlarsiz amalga oshiriladi.Norezident jismoniy shaxslarga chet el valyutasini sotish norezident tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga qonuniy manbalardan milliy valyutada mablag'lar kelib tushganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan taqdirda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, norezidentlar hujjatlarda ko'rsatilgan miqdordan ortiq bo'lmagan miqdorda valyuta sotib olishlari mumkin bo'ladi.

Valyutaviy cheklashlar mamlakatlar hududidan oltin va valyuta qimmatliklari chiqib ketishining oldini olishda, shu asosda, chet el valyutalariga bo'lgan talabni tartibga solish maqsadida qo'llaniladi.

Mamlakatlarda valyuta kursi rejimini tanlash, uning shartlariga amal qilish ham valyuta siyosatining bir ko'rinishi hisoblanadi.

Valyutalaming konvertirlanishiga doir cheklovlar odatda, tashqi savdo cheklovlari va kapitallar harakatiga oid cheklovlar, bir-biridan alohida tarzda o'rganilgan edi. Bu hoi, ushbu cheklovlaming ikki shakli bir-biridan mustaqil ravishda va turli xil sabablarga ko'ra joriy etilishi bilan bog'liq boiishi ham mumkin.

Valyuta cheklovlari shakllari turli xil shaklda boiishi mumkin. Odatda, tashqi savdoda mahsulot eksport qiluvchilarga valyuta tushumining barchasi yoki uning bir qismini Markaziy bank yoki vakolatli banklarga rasmiy kurs bo'yicha topshirish talabi keng qoilaniladi.

Valyuta cheklovlari quyidagilami nazarda tutadi:

chet elga toiovlami o'tkazilishi, kapitalni olib chiqib ketilishi, foydani, oltinni, pul belgilari va qimmatli qog'ozlami repatriatsiya qilinishini tartibga solish;

davlatga majburiy tarzda xorijiy valyutani topshirilishi (rasmiy kurs bo'yicha milliy valyutaga ayirboshlash evaziga).

Quyidagilar amaliyotda qo'llaniladi:

import qiluvchilarga xorijiy valyutani sotilishini litsenziyalash;

valyuta qimmatliklarini davlat idoralarining maxsus

ruxsatnomasisiz olib kirilishi va olib chiqib ketilishini man etilishi;

jismoniy shaxslaming xorijiy valyutadagi mablag'larga egalik qilishi va tasarruf etishini cheklash;

chet elga shaxsiy daromadini o'tkazishni tartibga solish;

sug'urta va boshqa to'lovlami amalga oshirish;



chet elga chiqishda milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirilishini limitlash.

Ichki ayirboshlanish deganda rezidentlaming mamlakat ichkarisida xorijiy valyutadagi muayyan aktivlar (masalan, bank depozitlari)ni saqlash va tegishli tarzda milliy valyutani mamlakat ichkarisida konvertatsiya qilish huquqi mavjud boigan ahvol tushuniladi. Ammo, mamlakat ichkarisida valyutaga ega bo'lish va uni ayirboshlash bo'yicha ushbu huquq mamlakat ichkarisida valyuta to'lovlarni amalga oshirilishiga ruxsat berilishi, shuningdek, chet elga to'lovlarni o'tkazilishi yoki xorijda joylashtirilgan aktivlarga egalik qilishni nazarda tutmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. X.Ataniyazov Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari nazariyasi.
2. T.I.Bobakulov U.A.Abdullayev Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari,
3. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/valyuta-siyosati-va-uning-asosiy-shakllari>
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/valyuta-siyosati-va-uning-asosiy-shakllari>

